

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatimizda 5 052 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 231 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,4 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 780 tasi (15,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 368 tasi (7,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 475 tasi (9,4 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 356 tasi (7,0 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 32 655,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Samarqand viloyati	32 655,5	109,8
Samarqand sh	11 880,2	114,5
Kattaqo'rg'on sh	908,3	118,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	734,0	113,2
Bulung'ur	482,0	112,2
Jomboy	3 238,4	114,5
Ishtixon	797,1	108,2
Kattaqo'rg'on	1 589,5	112,5
Qo'shrabot	218,3	119,7
Narpay	696,1	110,3
Payariq	492,9	113,2
Pastdarg'om	1 165,3	109,8
Paxtachi	451,8	109,3
Samarqand	1 666,3	109,3
Nurobod	496,7	115,6
Urgut	2 264,7	109,1
Toyloq	1 919,2	110,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (19 547,8 ming so'm), Jomboy tumanida (16 255,3 ming so'm), Toyloq tumanida (8 265,9 ming so'm), Samarqand tumanida (5 850,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 427,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on shahrida (116,7 %),

Qo'shrabot tumanida (117,8 %), Nurobod tumanida (113,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida*



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 31 134,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,3 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 435,4 mlrd so'm (1,3 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 860,5 mlrd so'm (2,6 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 225,4 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

*Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida*



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 265 221,3 tonna chaqiq tosh (2025-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 91,3 % ga ko'paygan), 16 159,8 tonna ip kalava (4,9 % ga ko'paygan), 9 573,0 ming litr pivo mahsulotlari (0,2 % ga kamaygan) hamda 16 814,8 ming metr kvadrat gilam va gilam mahsulotlari (7,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Avtobus, dona	427	215	220
Yuk avtomobillari, dona	1 492	1 827	2 444
Portlandsement, ming tonna	1 200,0	1 336,7	1 600,7
Konyak spirti, ming litr	55,0	37,0	29,3
Paxta tolasi, ming tonna	29,0	20,5	25,5
Gilam va gilam mahsulotlari, ming m. kv.	13 931,9	15 646,5	16 814,8

O'simlik yog'i (tozalangan),tonna	18 287,0	38 174,0	43 084,0
Kunjara va qattiq chiqindilar, ming tonna	44,9	66,3	63,1

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,7 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,7 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2025-yilning yanvar-iyun oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 11,5 % (12,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,8 % (23,2 %), quyi texnologiyali 61,3 % (59,6 %)ni tashkil etgan.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 85,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kv.t.s.	105,3	124,9	106,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	105,3	124,9	106,8
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	-	-	-
Issiqlik energiyasi, ming gkal	-	-	-

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 24,7 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 30,5 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 4,5 % ga ko'payish kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	64 801,2	75 981,7	94 763,9
Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	32 426,3	38 468,5	50 212,6

Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari, mln so'm	28 707,8	37 329,4	60 356,0
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 771,4	1 828,2	1 910,0

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 829,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a)

sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
T. Alimov
66 235-06-80 (3012)

Manzil:
Samarqand sh
U.Tursunov-82 uy
